

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**“SHARQ-U G'ARB
ADABIYOTIDA GUMANIZM:
NAVOIY VA PUSHKIN”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari

2024-yil, 25-aprel

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ALISHER NAVAI TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
FACULTY OF UZBEK PHILOLOGY
DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND COMPARATIVE LITERATURE

*Proceedings of the international scientific-theoretical
conference titled*

**“HUMANISM IN EASTERN AND
WESTERN LITERATURE:
NAVOI AND PUSHKIN”**

April 25, 2024

Toshkent
“Nurafshon business”
2024

46.	<i>Маҳмадиёр АСАДОВ.</i> “ДОНИШМАНД СИЗИФ” РОМАНИ ШАРҚОНА МАЪНАВИЯТ КОНТЕКСТИДА	460
47.	<i>Azamat XAYRULLAYEV.</i> N.NORQOBIL NIKOYALARI KOMPOZITSIYASI	469
48.	<i>Tozaqul MATYOQUBOVA.</i> ADABIY TA’SIR VA O’ZIGA XOSLIK	483
49.	<i>Rukhsana IFTIKHAR.</i> “THE MEMOIRS OF GULBADANBEGUM”	494
50.	<i>Светлана ДРАЧЕВА.</i> ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ ПОЭЗИИ ДЛЯ ДЕТЕЙ	500
51.	<i>Gulchehra IMOMOVA.</i> O’ZBEK NIKOYALARIGA G’ARB MODERNISTIK ADABIYOTINING TA’SIRI	510
52.	<i>Iqboloy ADIZOVA.</i> MUMTOZ ADABIYOTDA QOFIYA	517
53.	<i>Sa’dulla QURONOV.</i> IJTIMOIIY SHART-SHAROIT VA “KOMIL INSON” KONSEPSIYASI	527
54.	<i>Нилуфар СУЛТОНОВА.</i> СЮЖЕТ МОДИФИКАЦИЯСИ ВА АДАБИЙ ТАЪСИР	532
55.	<i>Нурмурод ЧИННИҚУЛОВ.</i> ҚАДИМГИ ТУРКИЙ ЁЗМА МАЊБАЛАРИ ВА ШЕВАЛАРДА САҚЛАНГАН АЙРИМ СЎЗЛАР ХУСУСИДА	544
56.	<i>Zebiniso BEKMURODOVA.</i> NAVOIIY LIRIKASIDAGI AYRIM XIAZMLARNING LINGVISTIK TADQIQI	551
57.	<i>Baxtiyor RO’ZIYEV.</i> ALISHER NAVOIYNING IQTISODIIY QARASHLARI VA ULARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	556
58.	<i>Saodat MO’MINOVA.</i> NAZAR ESHONQUL VA FRANS KAFKA: ADABIY TA’SIR MASALASI	563
59.	<i>Shahnoza RAHMONOVA.</i> SHARQ ADABIYOTIDA MUXAMMAS – MUSTAZODNING O’RNI	570
60.	<i>Shahnoza QAXXOROVA.</i> “LISONU-T-TAYR”DA BAQO TALQINI	575
61.	<i>Шоҳида КАРОМОВА.</i> “ЛИСОНУ-Т-ТАЙР”ДА БАҚО ТАЛҚИНИ	582
62.	<i>Нилуфар УМАРОВА.</i> НАВОИЙ МАКТУБЛАРИ	587

Zebiniso BEKMURODOVA,
tayanch doktorant
(ToshDO'TAU, O'zbekiston)

NAVOIY LIRIKASIDAGI AYRIM XIAZMLARNING LINGVISTIK TADQIQI

Annotatsiya. Mazkur maqola tilshunoslikdagi xiazm hodisasining Alisher Navoiy lirikasidagi g'azal va ruboiylari tadqiqiga bag'ishlangan. Shuningdek, mumtoz she'riyat namunalarida xiazm va unga yondosh figuralar – sintaktik parallelizm, oksyumoronning lingvistik tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: xiazm, sintaktik parallelizm, oksyumoron, transformatsiya.

Abstract. This article is devoted to the study of the phenomenon of chiasm in linguistics, ghazals and rubai's in Alisher Navoi's lyrics. Also, the linguistic analysis of chiasm and related figures – syntactic parallelism, oxymoron – was carried out in examples of classical poetry.

Key words: chiasm, syntactic parallelism, oxymoron, transformation

Badiiy tilning bosh spetsifik xususiyatlari – obrazlilik (tasviriylik) va emotsionallik mavjud bo'lib, mazkur xususiyatlarni kuchaytirib namoyon etishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, badiiy adabiyot so'z vositasida tasvirlaydi (obrazlilik), ayni paytda, badiiy adabiyotdagi tasvir quruq emas, u his-tuyg'ularga yo'g'rilgan (emotsionallik)dirki, shu tasvir orqali muayyan o'y-fikr, his-kechinma ham ifoda etiladi.

D.Quronovning fikriga ko'ra, tildan foydalanishda muayyan badiiy-estetik maqsadni ko'zlab umumodatiy normadan og'ish (ya'ni til unsurlarini odatdagidan o'zga shakl, ma'no, tartib, munosabat va sh.k.larda qo'llash) natijasida yuzaga keladi va tasvirning jonli, ifodaning ta'sirli bo'lishiga xizmat qiladi. Bu xil og'ishlar tilning turli sathlarida: fonetik (alliteratsiya, assonans), morfologik (asindeton, polisindeton), leksik (arxaizm, dialektizm, jargon), semantik (trop-lar), sintaktik (inversiya, so'z takrori, sintaktik parallelizm, ellipsis, xiazm) sathlarda kuzatilishi mumkin.¹

“Adabiyotshunoslik lug'ati”da xiazmga quyidagicha ta'rif beriladi. “Xiazm (*yun.*, chiasmos – yunon alifbosidagi X harfidan, ya'ni shu harf shaklida joylashgan) – teskari tartibdagi sintaktik paral-

¹ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б.177.

lelizm, misradagi so'z (bo'lak)larni teskari tartibda takrorlashga asoslangan stilistik figura. Xiazm mohiyatan mumtoz she'riyatdagi tardi aks (q.) san'atiga yaqin turadi." Aksariyat hollarda xiazm, she'rning ketma-ket keluvchi misralarida namoyon bo'ladi.¹

O'zbek tilshunosligida xiazm va gradatsiya usuli O.Mamaziyayev tomonidan keng tahlil qilingan:² Oldimda uyum-uyum kitob, darslik; tevaragimda – **biri ilm uchun yashayotgan, biri yashash uchun ilm olayotgan** kimsalar; tashqarida esa, hayot atalmish beqiyos mo'jiza: charaqlagan quyosh, tip-tiniq osmon, top-toza havo, ko'zni qamashtiruvchi atlas ko'ylaklar – barno qizlar, o'ynoqi favvoralar, xushnag'ma qushlar. Ularni aynan hozirgidek namoyishda ko'rish menga hech qachon nasib etmaydi. (**"Otoyining tug'ilgan yili"**)

Ushbu parchada ilm uchun yashayotgan, biri yashash uchun ilm olayotgan sintaktik parallelizmi leksik jihatdan qarama-qarshi tuzilgan xiazm usulida shakllantirilgan. Bunday shakldagi sintaktik parallelizmn qo'llash natijasida adib asarlarining badiiy-estetik vazifasini to'la ta'minlab, fikrini aniq va emotsional-ekspressiv ifodalay olgan.

Xiazm usuli nutqning eng jarangdor, hissiy-ekspressivligi kuchli, tinglovchi yoki o'quvchining nutq ko'rinishiga diqqatini tortadigan, alohida bir qiziqish uyg'otadigan stilistik figura hisoblanib, uning yordamida shaklan va mazmunan qarama-qarshi narsa yoki voqea-hodisalar ifoda etiladi.

Sintaktik parallelizm – bu reduplikator va takrorlanuvchi birlik sifatida sintaktik konstruksiyaning o'zi bo'ladigan sintaksis darajasidagi takror. Ifodaviyligi aynan sintaktik tuzilmalarning takrori bilan erishilgan, tartib bo'yicha leksik takror A.Navoiyning quyidagi she'rida shunday berilgan:

*Menki o'ldum dahr eliga oshnolig' ranjidim,
Qilmag'aymen oshnolig', gar Masih o'lsun, yana
Oshnolardin tilarman aylasam begonalig',
Qayda mumkin bo'lmog'im begonalarga oshno.*

(A.Navoiy, 56-bet)

¹ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б.177.

² Мамазияев О.Х. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. Филол. фан. номз... дисс... – Фарғона. 2004. – Б. 38.

Mazkur misralarda mos sintaktik shakllantirish orqali shakllantirilganini ta'kidlash mumkin.

Yana A.Navoiydan misol keltiramiz:

*Munlig' **boshim** ostidog'i **toshimnimu** dey?*

***Tosh** ustidagi g'arib **boshimnimu** dey?*

Hasrat suyidin ko'zimda yoshimnimu dey?

O'lmakdan sa'broq maoshimnimu dey?

(A.Navoiy, 77 b.)

Stilistikada yana bir ekspressiv vosita mavjud – **oksyumoron**, qarama-qarshilikki, birinchi qarashda umuman valent bo'lmagan, ma'nosi bo'yicha bir-biriga butunlay zid bo'lgan so'zlarning birikuviga asoslangan usul, masalan: daxshatli chiroyli, vahimali darajada xursandman, qomatga keltiradigan jimlik va boshqalar. A.Navoiy ijodida esa quyidagi xiazmatik oksyumoronni uchratamiz:

*Vahki, hajring o'ti **jismi notavonim** o'rtadi.*

***Notavon jisming'a** tushgan sha'la jonim o'rtadi.*

(A.Navoiy. 109 b.)

*Menkim **o'ldum** dahr eliga **oshnolig'** ranjidim,*

*Qilmag'aymen **oshnolig'**, gar Masih **o'lsun**, yana.*

***Oshnolardin** tilarman aylasam **begonalig'**,*

*Qayda mumkin bo'lmog'im **begonalarga oshno**.*

(A.Navoiy. 56 b.)

Ushbu misralarda so'zlar ko'pma'nolikka tayanadi, ba'zida so'zlarni metaforik ishlatilishi poetik ifodani jonli va ishonarli qilganini kuzatish mumkin.

Lingvistik adabiyotda xiazmning xususiyatlariga bag'ishlangan qandaydir ishning mavjudligini ta'kidlaymiz, bu narsa fanning ushbu yo'nalishdagi bo'shlig'ini to'ldirishga qaratilgan urinishning muhimligini bildiradi. Ushbu ish – qiyosiy aspektda o'zbek va fransuz tillari xiazmatik konstrksiyalarini o'rganish ishida birinchi qadam.

Yuqorida aytilgan fikrlar asosida xiazmning quyidagi izohini aytish mumkin: xiazm – ham transforma, ham dastlabki forma berilgan transformatsiya bo'luvchi sintaktik figura, transformatsiya bittadan uchtagacha operatsiyani o'z ichiga oladi:

1) elementlarni ko'zguli simmetriya prinsipi bo'yicha joylashtirish (qayta qo'yish) (teskari parallelizm);

2) sintaktik funksiyalarni almashishli ikkilik leksik takror;

3) polisemik so'z mazmunining o'zgarishi yoki so'zlarning birini uning omonimini dastlabki shakli bilan almashish. Birinchi operatsiya sodda sintaktik xiazmni yaratish uchun zarur va yetarli, birinchi va ikkinchisi semantik murakkablashgan xiazmni yaratadi, uchulasi birga xiastik kalamburni yaratadi.

Xiazmatik konstruksiya sodir bo'ladigan leksik fon uning simmetrikligini kuchaytirishi mumkin: chap qismning konstitutiv bo'lmagan elementlari qanchalik ko'p o'ngda takrorlansa, shunchalik xiazmning shakli yorqinroq chiqadi, shunchalik butun konstruksiya simmetrik konstruksiyaga aylanadi.

Xiazm qismlari qurilishi bo'yicha bir-biriga qarama-qarshi: birinchi qismda so'zlar bir yo'nalishda ketsa, ikkinchisida ular teskari tartibda joylashgan, so'zlarning har biri kommunikativ ahamiyatga ega bo'lib, satrdagi o'rni tufayli intonatsion belgilanadi, shuning uchun bir vaqtning o'zida xiazmni tashkil etgan qismlarning semantik qarama-qarshiligi ham seziladi.

Adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Қаро қўзим. Ғазаллар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988.

2. Djurakulov U. "Khamsa" as a Universal Genri // The First Transboundary Conference for Sustainable Societies – 2023 / Pamir 2023.

3. Djurakulov U. "The first dastan of the "five" Alisher Navoi and the problem of the universal chronotope: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 3, March 2021 Impact Factor: SJIF 2021=7.492.

4. Sirojiddinov Sh. Mir Alisher Navoi and his Persian-language poetry // European journal of literature and linguistics, 2015. Section 3. Literature of peoples of foreign countries <https://cyberleninka.ru/article/n/mir-alisher-navoi-and-his-persian-language-poetry>

5. Abdushukurov B.B. Ethnonyms in the Works of Alisher Navoi. Proceedings of the 1st Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies September 16–17, 2023, in Virtual, India | VOL. 1 NO. 1 (2024): PAMIR ONE PREPRINTS.

